

AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

Sunatullayeva Shahnoza Xurshid qizi

PhD, dotsent.vb Moliya va moliyaviy texnologiyalar kafedrası

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va mutaxassislari tomonidan moliyaviy savodxonlikning mazmun-mohiyati va uning darajasini oshirish borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, moliyaviy savodxonlikning mamlakatda moliyaviy xizmatlar sohasi hamda moliyaviy bozorining rivojlanishiga, qisqa muddatli qarorlar va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishga ta'siri, fuqarolarning o'z mablag'ini boshqarish va uni ko'paytirish yo'llari, moliyaviy xizmatlarni ommalashtirish orqali aholining bu boradagi bilimlarini mustahkamlash, kichik biznes subyektlarining bunday xizmatlarga bo'lgan talabini oshirish, mamlakatdagi ishsizlik darajasini pasaytirish, aholida ajratilayotgan kredit mablag'larini o'zlashtirish, oddiy moliya hisobotlarini yuritish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Insonlarning moliyaviy xatti-harakatlariga moliyaviy savodxonlikning ta'sirini o'rganishda, avvalo, "moliyaviy bilim" va "moliyaviy savodxonlik" tushunchalari o'rtasidagi farqni anglab olish muhim. Moliyaviy savodxonlik - bu shaxs va jamiyat farovonligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muhim ko'nikma. Byudjetlashtirish, jamg'arma va sarmoya tikish kabi asosiy moliyaviy tushunchalar haqida bilimga ega bo'lish orqali odamlar o'z mablag'lari va kelajak uchun reja tuzishlari haqida asosli qarorlar qabul qilishlari mumkin. Moliyaviy savodxonlikning aksariyat ta'riflarida moliya bozorlari, ularning faoliyati va qoidalari, professional bozor ishtirokchilarining rollari va faoliyati, shuningdek, moliyaviy vositalar va mahsulotlar haqida bilimlarga ega bo'lish ta'kidlanadi¹³⁰.

Moliyaviy savodxonlik ikkita unsurning o'zaro uyg'unlashuvidan tashkil

Moliyaviy savodxonlik keng termin bo'lib, pulni boshqarish bilan bog'liq bir nechta muhim jihatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu jihatlarning ba'zilari quyidagilarni o'z ichiga oladi¹³¹:

1. Jamg'arma va qarz olish: kelajakdagi xarajatlar uchun pulni qanday tejashni va kerak bo'lganda kredit olishni o'rganish. Bunda byudjetlashtirish va rejalashtirish ko'nikmalarini shakllantirish ham nazarda tutiladi.

2. Shaxsiy byudjetlashtirish: Daromadlar asosida shaxsiy byudjet tuzish va uni boshqarish.

3. Iqtisodiy masalalarni tushunish: Iqtisodiy tendensiyalar, dinamika va moliyaviy qarorlarga ta'sirini bilish.

¹³⁰ Lusardi A., Mitchell O. S. The economic importance of financial literacy: Theory and evidence // American Economic Journal: Journal of Economic Literature. – 2014. – T. 52. – №. 1. – C. 5-44.

¹³¹ Measuring Financial Literacy: Core Questionnaire in Measuring Financial Literacy: Questionnaire and Guidance Notes for conducting an Internationally Comparable Survey of Financial literacy, Paris, OECD, 2011, 31 p.

4. Moliyaviy tushunchalarni bilish: Foiz stavkalari, inflyatsiya, investitsiya opsiyonlari va boshqalar kabi atamalar bilan tanishish.

5. Moliyaviy xizmatlardan xabardorlik: Bozorda mavjud bo'lgan turli xil moliyaviy mahsulotlar va xizmatlardan xabardor bo'lish.



1-rasm. Moliyaviy savodxonlikning asosiy tamoyillari¹³²

Shaxsning moliyaviy xulq-atvorini uning asosiy moliyaviy masalalarini boshqarishga bo'lgan yondashuvi, jumladan, jamg'arma odatlari va investitsiya strategiyalari orqali baholash mumkin. Moliyaviy xulq-atvor, shaxsning moliyaviy mahsulotlarni sotib olishdagi ishtiroki sifatida ham ko'rib chiqilishi, masalan, investitsiyalarning qancha foizi bozorda, obligatsiyalar, veksellar, aksiyalar, xedj fondlari, oltin, chet el valyutasi va muddatli depozitlar.

Moliyaviy savodxonlik mamlakatlar moliyaviy barqarorligini ta'minlash va barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli, moliyaviy savodxonlikni oshirish xalqaro iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishi bo'lishi zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, aholi moliyaviy savodxonligini oshirish mamlakat iqtisodiy barqarorligi, moliyaviy xavfsizligi va farovonligini ta'minlashning muhim strategik omili hisoblanadi. Moliyaviy bilim va ko'nikmalarning yetarli darajada shakllanmagani aholining noto'g'ri qarz olishi, ortiqcha iste'molchilikka berilishi, jamg'arma madaniyatining pastligi va moliyaviy firibgarliklarga duch kelish xavfini oshiradi. Shu bois moliyaviy savodxonlikni tizimli va institutsional asosda rivojlantirish ustuvor vazifa bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy savodxonlikni ta'lim tizimiga integratsiya qilish zarur. Maktab, kollej va oliy ta'lim bosqichlarida shaxsiy budjetni rejalashtirish, kredit madaniyati, investitsiya asoslari va raqamli moliya xizmatlari bo'yicha amaliy bilimlarni joriy etish uzoq muddatli ijobiy samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

¹³² Обилов М.Р. Влияние уровня финансовой грамотности населения на развитие предпринимательства и способы его повышения / Экономика и предпринимательство. М.: 2025 г. № 5. 839-846 с.

1. Lusardi A., Mitchell O. S. *The economic importance of financial literacy: Theory and evidence* // *American Economic Journal: Journal of Economic Literature*. – 2014. – Т. 52. – №. 1. – С. 5-44.

2. Обилов М.Р. Влияние уровня финансовой грамотности населения на развитие предпринимательства и способы его повышения / *Экономика и предпринимательство*. М.: 2025 г. № 5. 839-846 с.

3. *Measuring Financial Literacy: Core Questionnaire in Measuring Financial Literacy: Questionnaire and Guidance Notes for conducting an Internationally Comparable Survey of Financial literacy*, Paris, OECD, 2011, 31 p.

4. Судакова А.Е. Финансовая грамотность: теоретическое осмысление и практическое исследование // *Финансы и кредит*, 2017, т. 23, вып. 26, стр. 1563–1582.

5. Кузина О. Финансовая грамотность и финансовая компетентность: определение, методики измерения и результаты анализа в России // *Вопросы экономики*. 2015. № 8. С. 129-148.

6. Huston S.J. *Measuring Financial Literacy*. *The Journal of Consumer Affairs*, 2010, vol. 44, no. 2, pp. 296–316. 5. Улуғмуродов Д. Молиявий саводхонлик нима? - <http://old.xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/10461-moliyavij-savodkhonlik-nima>.

JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARIDAN UNDIRILADIGAN SOLIQ TUSHUMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJ TAJRIBASINING O'RNII

G'afforov Kamronbek Shovkatovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy shaxslarning daromadlaridan undiriladigan soliq tushumlari samaradorligini oshirish masalalari xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda qo'llanilayotgan progressiv stavkalar, soliq imtiyozlari tizimi, deklaratsiya mexanizmlari hamda raqamlashtirish jarayonlarining soliq tushumlariga ta'siri ilmiy jihatdan yoritilib tegishli xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, soliq tushumlari samaradorligi, xorij tajribasi, soliq ma'muriyatchiligi, soliq siyosati, soliq bazasini kengaytirish, progressiv soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliq yukining optimallasuvi, fiskal barqarorlik, daromadlarni legallashtirish, raqamli soliq tizimi.

Har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishida soliq tizimi muhim richag bo'lib hisoblanadi. Boisi, davlat uchun budget daromadlarining asosiy manbai soliqlar orqali shakllanadi. Davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri davlat ustuvorligini amalga